

ISMI ZAMON VA ISMI MAKONGA XOS ARABIZMLARNING "BOBURNOMA" ASARIDA QO‘LLANISHI

Mirzacomilova Rayhona

Andijon davlat universiteti talabasi

Umarov Adahamjon

Andijon davlat universiteti

Har bir xalqning tarixiy-siyosiy, milliy-madaniy qiyofasini jahonga ko‘rsatuvchi olim-u fuzalolari, alloma-yu olimlari, ilm-u ulamolari, so‘z san’atkorlari, bo‘ladi. Shunday so‘z san’atkorlaridan Zahiriddin Muhammad Boburni ko‘rsatishimiz mumkin. Uning "Boburnoma" asari jahon adabiyoti va manbashunosligida muhim va noyob yodgorlik, o‘zbek adabiyotida esa dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Bu asarda ismi zamon va ismi makon nomlari turli o‘rinlarda kelgan.

Ma’lumki, o‘zbek tilida o‘rin-joy otlari morfologik usulda ya’ni o‘zakka o‘rin-joy oti yasovchi *-loq* (o‘tloq), *-zor* (gulzor), *-goh* (oromgoh), *-xona* (to‘yxona), *-iston* (Guliston) qo‘shimchalarni qo‘shish orqali yasaladi.

Arab tilida ish-harakatning bajarilish o‘rni yoki paytini bildiruvchi so‘zlar o‘rin va payt nomlari (ism ul-makan va az-zaman) deyiladi. Bu ikki tushuncha arab tilida bir vazn asosida yasaladi va bir vaqtning o‘zida ham o‘rinni, ham paytni bildirib keladi.¹ Ismi zamon va makon I bob fe’lining hozirgi-kelasi zamonidagi old qo‘shimcha *ya* harfi *m* harfi bilan almashtiriladi va oxirgi o‘zak undosh tanvin harakatini qabul qilishi bilan yasaladi. Quyida ismi zamon va makon vaznlarining shakllanishini misollar bilan ko‘rib chiqamiz:

Manzil bu arabcha so‘z **manzilun** shakliga ega bo‘lib, **nazala** fe’lidan yasalgan.

1. Arab tilida "yashash joyi", "uy", "kvartira" ma’nosini, o‘zbek tilida "yashash yoki ishlash joyi" degan ma’noni anglatadi. O‘zbek so‘zlashuv tilida bu so‘z **mazgil** tarzida ham talaffuz qilinadi. 2. Kurash, harakat natijasida erishilishi mo‘ljallangan marra. 3. Safarda, yo‘lda to‘xtab o‘tiladigan, qo‘nib turiladigan yoki yetib bo-rish mo‘ljallangan joy.

- "Boburnoma" asarida manzil so‘zi ko‘pincha **yo‘lning bir to‘xtash joyidan ikkinchi bir to‘xtash joyigacha bo‘lgan masofa** ma’nosida kelgan.

Bir manzil o‘tib, jumod ul-oxir oyining so‘ngida, payshanba kuni Panipatga yetib keldik. (198-bet).

¹ Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. –Б. 151.

Ma'raka bu soʻz **ma'rakat(un)** shakliga ega. **Ma'rakat—ma'raka; araka** — "kurashdi" feʼlidan yasalgan.

1. Arab tilida "kurash" "jang" maʼnolarini anglatadi. Oʻzbek tilida "oʻlgan kishining xotirasiga bagʻishlab oʻtkaziladigan marosim" maʼnosini anglatish uchun xizmat qiladi. 2. Biror muhim voqea, toʻy, taʼziya va boshqa munosabatlar bilan oʻtkaziladigan marosim, yigʻin. Ayrim tumanlarda turli munosabat bilan xonadonlarda oʻtkaziladigan yigʻinlar ham maʼraka deb nomlanadi. 3. Siyosiy yoki xoʻjalik ahamiyatiga ega boʻlgan biror ishni amalga oshirish uchun oʻtkaziladigan yalpi harakat; kompaniya. 4. Safarda, yoʻlda toʻxtab oʻtiladigan, qoʻnib turiladigan yoki yetib borish moʻljallangan joy. 5. Motam marosimlarining yigʻindisi va ularning biri.

-Asarda maʼraka soʻzi **jang maydoni** maʼnosida kelgan.

Oʻzining qoʻlidan kelgan hech bir holat boʻlmagan esa-da, aytishlaricha, baʼzi jang maʼrakalarida unda shijoat asari koʻringan edi. (39-bet)

Mahkama soʻzi **mahkamat(un)** shakliga ega boʻlib, **mahkamat—mahkama; hakama**—"boshqardi" feʼlidan yasalgan

1. Bu soʻz "boshqaruvchi idora" maʼnosini anglatadi. 2. Umuman, boshqarma, idora; 3. Hukm qiluvchi, hukm chiqaruvchi idora; sud.

-Mahkama soʻzi **hukm chiqaruvchi idora** maʼnosida kelgan.

Yoz paytlari mahkamadan boshqa yerlarda aksar moʻgʻulcha boʻrk kiyardi. (32-bet)

Maskan arabcha soʻz boʻlib, **maskan(un)** shakliga ega boʻlib, **sakana**—"yashadi", "hayot kechirdi" feʼlidan yasalgan. Bu soʻz "yashash joyi" maʼnosini anglatadi.

1. Turarjoy, yashaydigan joy, makon. 2. Umuman, joy, makon. 3. Maskan qurmoq (yoki tutmoq) Joy (makon) qilmoq. ◆ Mana bu yerda abadiy maskan

-Maskan soʻzi "**turarjoy**", "**yashash joyi**" maʼnolarida kelgan.

Yana bir imorati Koʻxak tepaligi etaklaridagi rasadxonadirki, bu zij bitmakning maskanidir. (56-bet)

Makon soʻzi arabcha soʻz boʻlib, **makan(un)** shakliga ega. **Makan—makon; kana**—"mavjud boʻldi", "voqea boʻldi" maʼnosini anglatuvchi feʼlning I bob masdari.

1. Arab tilida besh maʼnoni anglatuvchi bu soʻz oʻzbek tilida "turar joy" maʼnosini anglatadi. 2. Tosh va jez davrida yashagan ibtidoiy odamlarning mavsumiy, vaqtinchalik boshpanasi yoki doimiy, davriy turar joyi. 3. Fano va vaqt.

-Makon soʻzi **biror narsa toʻplangan yoki koʻp boʻlgan joy** maʼnosida kelgan.

Kabul va Gʻazni toʻpolonchi va janjalkashlar makoni edi. (145-bet)

Mahalla soʻzi arabcha soʻz boʻlib, **mahallat(un)** shakliga ega. **Mahallat — mahalla; halla** yaʼni “istiqomat qildi” maʼnosini anglatuvchi feʼldan yasalgan.

1. Arab tilida “lager” “kvartal” maʼnolarini anglatadi. Oʻzbek tilida bu soʻz “shaharning maʼlum bir qismi” maʼnosini anglatish uchun xizmat qiladi.

2. Oʻzbekistonda maʼmuriy-hududiy birlik; oʻzini oʻzi boshqarishning oʻzbek xalqining anʼanalari va qadriyatlariga xos boʻlgan usuli

-Mahalla soʻzi **shaharning maʼlum bir hududini oʻz ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, oʻzini oʻzi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-siyosiy boʻlagi** maʼnosida kelgan.

Uning mahalla va uylari koʻp, bir tomonimizda atrofdagi mahalla va uylar boʻlsa, ikkinchi taraf arava va qalqonlar bilan toʻsiladi. (198-bet)

Mamlakat soʻzi arabcha soʻz, **mamlakat(un)** shakliga ega, Asli **malaka — boshqardi** maʼnosini anglatuvchi feʼldan yasalgan **mamlak(un)** oʻrin otining “muqimlik” maʼnosini ifodalovchi **-at(un)** qoʻshimchasi qoʻshilgan shaklidir.

1. Biror davlat boshqaruvidagi territoriya, yer-suv maʼnosini anglatadi.
2. Mamlakat, tayinli milliy, iqlimiy, madaniy, tarixiy yoki siyosiy chegaralangan hudud hisoblanadi. Mamlakat oʻz davlat suverenitetiga ega boʻlishi yoki boshqa davlat qaramogʻida boʻlishi mumkin.

-Mamlakat soʻzi **muayyan chegaralarga va davlat suverenitetiga ega boʻlgan hudud** maʼnosida kelgan.

Hindiston birinchi, ikkinchi va uchinchi iqlimda joylashgandir. Juda ajoyib mamlakatdir.

Mavze bu arabcha soʻzi **mavdi(un)** shakliga ega; oʻzbek tilida tovushi **ḍ** tovushiga almashdi, soʻz oxiridagi aynni tashlab, shuning evaziga **i** unlisini **e** unlisiga almashtirib qabul qilingan. **Mavdi—mavze** holiday kelgan. Bu soʻz **vadaa** feʼlining maʼlum holat egallatdi maʼnosi bilan yasalgan.

1. Arab tilida “joy”, “holat” kabi maʼnolarini anglatadi. Oʻzbek tilida esa “shahar atrofidagi bogʻ-rogʻ joylar” maʼnosini anglatadi.
2. Shaharning ayrim nomlar bilan yuritiladigan qismlari.

-Mavze soʻzi **shahar va shahar atrofidagi aholi yashaydigan joylarning kichik hududi, mahallasi** maʼnolarida kelgan.

Xoʻjandning hayvon va qushlari ovlanadigan joylari juda qulay. Bunga tobe mavzelardan biri Konibodomdir. (30-bet)

Maqbara soʻzi **maqbarat(un)** shakliga ega; oʻzbek tiliga soʻz oxiridagi **t** tovushini tashlab qabul qilingan: **maqbarat—maqbara** shakliga ega. **Qabara—** “koʻmdi” maʼnosini anglatuvchi feʼldan yasalgan oʻrin oti.

1. Arab tilida “qabriston” maʼnosini bildiradi.
2. Oʻzbek tilida esa “qabr ustiga qurilgan yodgorlik binomial maʼnosini anglatadi.

-Maqbara soʻzi **qabriston** maʼnosida kelgan.

Yana Keshda madrasa va maqbara tiklagandir. Jahongir Mirzo va tag'in ba'zi avlodining maqbarasi andadir.(157-bet)

Madrasa bu arabcha soʻz **madrasat(un)** shakliga ega; oʻzbek tiliga **t** tovushi tashlabqabul qilingan. Bu soʻz oʻqitdi maʼnosini ifodalovchi **darasa** feʼlidan **mafʼalat(un)** vaznida yasalgan joy nomi.

1. Arab tilida "maktab", "bilim" yurti maʼnosini bildiradi 2. Oʻzbek tilida esa "asosan diniy fanlar oʻqitiladigan oliy maktab" maʼnosini anglatadi.

-Madrasa soʻzi **diniy oliy oʻquv yurti** maʼnosida kelgan.

Ulugʻbek mirzoning yirik imoratlaridan Samarqand qalʼasining ichidagi madrasa va xonaqohdir.

Majlis soʻzi arabcha soʻz boʻlib, **majlis(un)** shakliga ega. Aslida **jalasa** oʻtirdi maʼnosini anglatuvchi feʼlidan yasalgan oʻrin oti hisoblanadi

1. Arab tilida "oʻtirish oʻrni", "yigʻilish", "jamoat boshqaruv hayʼati" maʼnolarini anglatadi. 2. Oʻzbek tilida "yigʻilish" "boshqaruv hayʼati" maʼnolari bilan ishlatiladi.

-Majlis soʻzi "BOBURNOMA" asarida **yigʻilish, boshqaruv hayʼati** maʼnolarida kelgan.

Bir oʻlturgʻon bila majlisda gohi bir kecha-kunduz oʻlturur erdi, yaxshi ichar erdi.

Mutabarrak mazorat Gʻaznida bisyordir.(44- bet)

Masjid soʻzi **masjid(un)** shakliga ega boʻlib, **sajada** yaʼni "sigʻindi" feʼlidan yasalgan. Bu soʻz "musulmonlarning jam boʻlib oʻqiydigan, Ollohga sigʻinadigan ibodatxona" maʼnosini anglatadi.

- "Boburnoma" asarida ham masjid soʻzi aynan shu maʼnoda kelgan.

Aftidan, bu masjid qiblasini aniqlashda munajjim usulini qoʻllaganlar.

Xulosa qilib aytganda, "Boburnoma" asarida ismi zamon va ismi makon nomlari bir oʻrinda arabcha soʻz sifatida, yana bir oʻrinda turkiy soʻz sifatida qoʻllangan. Bundan maʼlumki, "Boburnoma" asari ismi zamon va ismi makon nomlarini oʻrganish uchun boy manba hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Бобурнома. "Оʻqituvchi" нашриют-матбаа ижодий уйи. Тошкент - 2008.
2. Иброхимов Н., Юсупов М., Араб тили грамматикаси 1-жилд. Тошкент., 1997й. 453 бет.
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Тошкент. "Университет" 2003. 600 бет.
4. Шоабдурахмонов Ш., Аскарлова М., Ҳожиёва А., , Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм педагогика институти филология факультети студентлари учун дарслик. ТОШКЕНТ «ЎҚИТУВЧИ» 1980. 448 бет.
5. Internet ma'lumoti: <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/> sayti.